

VIZUAL VOSITALARDAN FOYDALANISH ORQALI BILIM SIFATINI OSHIRISH**Bo'ribayeva Sharofat Abduraxmanovna****Xalqaro Nordik Universiteti Katta o'qituvchisi,****E-mail: b.sharofat@nordicuniversity.org****ORCID:0009-0000-3065-6607****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20078854>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida, xususan chet tillarini o'qitish metodikasida vizual vositalardan foydalanish orqali talabalar bilim sifatini oshirishni hususida to'xtalib o'tilgan. Vizualizatsiya tushunchasining talabalar kognitiv faolligini oshirish, axborotni uzoq muddatli xotirada saqlash va murakkab mavzularni o'zlashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada vizual vositalarni yaratishda sun'iy intellektdan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri ekanligi talqin qilingan.

Kalit so'zlar: vizualizatsiya, ta'lim sifati, sun'iy intellekt, chet tillarini o'qitish, axborotni o'zlashtirish.

Kirish. Zamonaviy axborot texnologiyalari va globallashtirish davrida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri talabalarga ma'lumotni tez va samarali yetkazish hamda ularda axborotni qabul qilish va qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bugungi kun talabasi uzluksiz ma'lumotlar oqimi bilan to'qnash keladi. Bunday sharoitda an'anaviy, asosan matn va og'zaki nutqqa tayangan o'qitish metodlari kutilgan samarani bermaydi. Darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan va turli o'qitish vositalaridan foydalanib qiziqarli dars o'tish o'qituvchidan katta tajriba va mashaqqatli mehnat talab qiladi. Barchaga ma'lumki, o'quv mashg'ulotiga mo'ljallangan ko'plab o'quv vositalari mavjud bo'lib, ulardan til o'rganuvchining bilimiga, qiziqishiga va o'quv jarayoniga tegishlilikini tanlab olish pedagogning mahoratiga bog'liq. O'qitish vositalari o'quv mashg'ulotining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. "Chet tili o'qitish vositalari o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish manfaati yo'lida ishlatiladigan barcha o'quv qurolarini o'z ichiga oladi" [1] Shu sababli, ta'lim jarayonida, ayniqsa chet tillarini o'qitishda vizual vositalardan unumli foydalanish bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Ta'limda vizualizatsiya bu mavhum va murakkab ilmiy tushunchalar, leksik-grammatik strukturalar va mantiqiy bog'liqliklarni talabalarning idrok etishi uchun qulay bo'lgan ko'rgazmali vositalar ko'rinishiga o'tkazish jarayonidir. Ko'rgazmali vositalarga ko'pgina ta'riflar berilgan ulardan yana birini ko'rib chiqamiz. "Vizualizatsiya deb, aslida inson ko'zi ilg'amaydigan tuzilma va jarayonlarni ko'rinadigan qilib beruvchi tasvirlarga aytiladi." [3]. Vizual vositalar o'quv jarayonining samarali tashkil qilishda muhim omillar qatoridan o'rin egallab, undan ta'limning barcha bosqichlarida unumli foydalanish mumkin. Ular dars sifatini yuqori darajada bo'lishini ta'minlash bilan birga, talabalarni darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi va ularni intellektual salohiyati hamda dunyoqarashini kengayishga yordam beradi va eng asosiysi talabalarni darsga bo'lgan qiziqishi hamda motivatsiasini oshirishga katta yordam beradi.

Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishda ko'rgazmalilik eng muhim tamoyilar qatoridan o'rin egallagan. Vizual vositalardan o'quv mashg'ulotida o'rinli foydalanish talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. "Ko'rgazmali ma'lumot ishlatilganda taassurot hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 5-6 marotaba tezroq kechadi. Insonning ko'rgazmali ma'lumotga ishonchi, og'zaki ma'lumotdan

ko'ra yuqori bo'ladi." [2] Shu sababli darslardan imkon qadar samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Darsni samarali tashkillashtirishda sun'iy intellektdan foydalanish ham ijobiy natijalar berib kelmoqda. Sun'iy intellektni o'quv jarayoniga tatbiq qilinishi nafaqat talaba yoshlarga balki professor - o'qituvchilarga ham juda katta qulayliklar yaratib bermoqda.

An'anaviy o'quv qo'llanmalaridagi rasmlardan farqli o'laroq, Midjourney, DALL-E yoki Canva AI kabi generativ dasturlar o'qituvchiga mavzuga doir vizual materiallarni tezkor yaratish imkonini beradi. Chet tilida yangi leksik birliklarni, iboralarni yoki madaniy realiyalarni tushuntirishda talabalarning qiziqishi va yoshiga moslashtirilgan maxsus tasvirlarni generatsiya qilish semantizatsiya jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Yangi so'zlarni ona tiliga tarjima qilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri tasvirlar orqali tushuntirish chet tilida fikrlash ko'nikmasini tezroq shakllantiradi. Bunday visual vositalarni sun'iy intellekt yordamida bir zumda tayyorlash mumkin.

Sun'iy intellekt talabalarning o'zlashtirish darajasini, xatolari va o'quv uslublarini tahlil qila oladi. Til bilish darajasi turlicha bo'lgan geterogen guruhlarda sun'iy intellekt har bir talaba uchun individual vizual vositalar shakllantirishi mumkin. Murakkab grammatik qoidalarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan talabaga sun'iy intellekt soddalashtirilgan sxemalarni taklif qilsa, o'zlashtirishi yoqori talabalarga murakkabroq kognitiv xaritalar (Mindmaps) taqdim etadi. Murakkab grammatik qoidalarni (masalan, nemis tilidagi kelishiklar yoki gap qurilishi) rangli bloklar va sxemalar orqali vizualizatsiya qilish, qoidalarning mantiqiy tuzilishini osongina ilg'ab olish imkonini beradi.

Shuningdek, bugungi kunda an'anaviy doska o'rnini Smart-doskalar, turli xil platformalarda yaratilgan dinamik vizual taqdimotlar egallamoqda. Ushbu vositalar nafaqat talabalarga ma'lumotni yetkazish imkonini beradi, balki ularni oson o'zlashtirish imkonini beradi.

Xulosa: Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, vizual vositalardan maqsadli va tizimli foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, bilim sifatini oshirishda eng samarali omillardan biri sanaladi. Vizualizatsiya kognitiv faollikni oshiradi, axborotni idrok etishni yengillashtiradi va ta'lim oluvchining motivatsiyasiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quv jarayonida turli o'qitish vositalaridan unumli foydalanish dars sifatini yuqori darajada bo'lishini ta'minlash bilan birga, talabalarni darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi va ularni intellektual salohiyati hamda dunyoqarashini kengayishida muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Жалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси.-Тошкент: О'qituvchi 1996.-876.
2. Olimov Q. Zamonaviy ta'lim va innovation texnologiyalari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar.O'quv uslubiy majmua. Buxoro 2015. -26-27b.
3. Ballstaedt S.-P. Visualisieren: Bilder in Kommunikation und Medien. – Tübingen: UTB, 2012. – 3 S.